

Axmedov Baxtiyorjon Ravshanbek o'g'li
Andijon davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi
Email: abaxtiyor308@gmail.com

TELEGRAM MULOQOTINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA NOVERBAL VOSITALAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada Telegram platformasidagi muloqotning lingvistik xususiyatlari va noverbal vositalari tahlil qilingan. Xususan, foydalanuvchilar tomonidan ishlatiladigan yozma nutq shakllari, emoji, gif va memlar kabi vositalarning semantik va pragmatik funksiyalari o'rganilgan. Telegramdagi chat va kanallarda muloqotning og'zaki nutqqa yaqinligi, qisqaligi va informalligi, shuningdek, multimodal belgilar orqali ifoda kuchaytirilishi ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Telegram, muloqot, emoji, gif, noverbal vositalar, multimodal, pragmatika

Ахмедов Бахтиержон Равшанбек оглы
Преподаватель кафедры узбекского языкознания
Андижанского государственного университета.

ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЛЕГРАММНОГО ОБЩЕНИЯ И НЕВЕРБАЛЬНЫЕ СРЕДСТВА

Аннотация: В статье рассматриваются лингвистические особенности общения на платформе Telegram, а также роль невербальных средств. Особое внимание уделено анализу письменной речи пользователей, а также семантическим и прагматическим функциям эмодзи, гифок и мемов. Установлено, что коммуникация в чатах и каналах Telegram приближена к устной речи, характеризуется краткостью, неформальностью и активным использованием мультимодальных элементов.

Ключевые слова: Telegram, коммуникация, эмодзи, гифки, невербальные средства, мультимодал, прагматика

Akhmedov Bakhtiyorjon Ravshanbek o'gli
Teacher of the Department of Uzbek Linguistics

LINGUISTIC FEATURES OF COMMUNICATION ON TELEGRAM AND NONVERBAL MEANS

Abstract: This article analyzes the linguistic features of communication on the Telegram platform and the role of nonverbal elements. It focuses on the written forms of user speech and explores the semantic and pragmatic functions of emojis, gifs, and memes. Communication in Telegram chats and channels is shown to be close to spoken language, marked by brevity, informality, and the frequent use of multimodal signs to enhance meaning.

Keywords: Telegram, communication, emoji, gif, nonverbal elements, multimodal, pragmatics

Kirish

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, til va muloqot jarayonlariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, mobil ilovalar va ijtimoiy platformalar orqali amalga oshirilayotgan yozma muloqot shakllari an'anaviy yozma va og'zaki nutq turlaridan keskin farqlanadi. Shunday platformalardan biri sifatida Telegram messenjeri tilshunoslik nuqtayi nazaridan alohida e'tibor talab qiladigan muhim kommunikativ muhit hisoblanadi.

Dastlab telegramning asosiy maqsadi xavfsiz va tezkor yozma muloqot muhitini ta'minlash edi. Bugungi kunga kelib esa Telegram oddiy messenjerlikdan chiqib, keng ijtimoiy platformaga aylanib ulgurgan. U foydalanuvchilarga shaxsiy suhbatlar (chat), guruh muloqotlari, kanallar, botlar, ovozli chatlar, fayl ulashish, reaksiya bildirish va multimodal aloqa vositalari orqali muloqot qilish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar tahlili

Ijtimoiy tarmoqlarning lingvistik xususiyatlari, media diskurs, lingvistik ekspertiza kabi sohalar tilning bir yo'nalishi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshlagan bo'lib, bugungi kunda tilshunoslikning eng dolzarb va amaliy qamrovli sohalaridan biriga aylangan. Mazkur yo'nalishning shakllanishiga

jamiyatda kommunikatsiya vositalarining ko‘payishi, nutq erkinligining kengayishi va shu bilan birga, nutq orqali huquqbuzarliklar sodir etilish holatlarining ortib borishi sabab bo‘ldi. Ayniqsa, internet muloqotidagi haqorat, tuhmat, obro‘sizlantirish, etnik yoki diniy kamsitish kabi ifodalarni aniqlash, ularni huquqiy-tilshunoslik mezonlar asosida baholash zarurati lingvistik ekspertizani mustaqil ilmiy va amaliy soha sifatida shakllantirishga turtki bo‘ldi.

Xalqaro tajribada ijtimoiy tarmoq yozishmalari, anonim xatlar, blog va forum postlarining lingvistik tahliliga oid tamoyillar ingliz olimlari “M. Coulthard, Tim Grant va N. Smith” tomonidan ishlab chiqilgan. Ayniqsa, mualliflikni aniqlash, muallif uslubining identifikatsiyasi, til konstruktsiyalarining individual xususiyatlari orqali shaxsni aniqlash kabi masalalar bo‘yicha ularning tadqiqotlari forensik lingvistika sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, O.V. Ivanova, T.Y. Vinogradova, A.S. Trach, A.Y. Isayeva, Y.V. Akimseva (2015) kabi tadqiqotchilar Facebook, Instagram va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda kechayotgan muloqotning kommunikativ xususiyatlarini, virtual makonda yozma nutq vositalaridan foydalanish tendensiyalarini atroflicha o‘rganib chiqqanlar. Bundan tashqari, internet muloqotining pragmatik va lingvistik tabiati, ijtimoiy tarmoqlardagi fikr bildirish (kommentariyalar) madaniyati, virtual muhitdagi dialoglar va anonim yozishmalarning ifoda vositalari kabi masalalar D.M. Grekova (2020), A.V. Kuznetsova (2015), E.M. Karavayeva (2017), E.V. Teterleva, I.V. Portnova (2018), E.V. Xolodkovskaya (2014), P. Sinitsin, V.V. Svinsov (2006), Dj. Suler, T.V.A. Letyagina, A.A. Pechekladova, E.I. Goroshko (2015), E.B. Ibrahim (2023) kabi olimlar tomonidan rus va g‘arb tillari materiallari asosida chuqur o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida esa bu borada olib borilgan tadqiqotlar orasida Sh. Shaxabiddinova (2020), I. Xojialiyeu (2001), D. Rustamov (2021), R. Xalilova (2021), M. Madaminova (2023) kabi olimlarning ilmiy ishlari e‘tiborga loyiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Telegramdagi muloqotning tahlil qilinishi ko'p hollarda nafaqat lingvistik, balki sotsiopragmatik, psixolingvistik va diskursiv tahlillarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, foydalanuvchi tomonidan yuborilgan "😞 Qani, endi ko'ramiz!" degan xabar matn va emoji integratsiyasidan tashkil topgan bo'lib, uni ekspertiza qilishda so'zlar orqali ifodalangan niyat, emoji orqali uzatilgan emotsional fon, kontekst va suhbat tarixida bu xabarning qanday ma'noga ega ekani kabi omillar inobatga olinadi. Bu esa ekspertizani faqat matn doirasida emas, balki multimodal kontekstda baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. [1]

Zamonaviy lingvistik ekspertiza faqat grammatik, semantik va stilistik tahlil bilan cheklanmaydi. U quyidagilarni ham qamrab oladi:

- Kommunikatsion niyatni aniqlash (masalan, tahdid, haqorat, ijtimoiy nizoga undash alomatlari);
- Ekstralingvistik vositalar (emoji, stiker, GIF, ovozli xabarlar) yordamida uzatilayotgan konnotatsiyalarni tahlil qilish;
- Muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi til uslubi va identifikatsiya belgilarini aniqlash (individuallikka oid lingvistik portret tuzish);
- Platformaning kontekstual tilini (Telegramdagi norasmiy yozishmalar, slang, qisqartmalar, kod aralashuvi) baholash.

Bunday murakkab muloqot formatini tahlil qilish uchun multimodal lingvistik ekspertiza yondashuvi ishlab chiqilgan bo'lib, bu uslub Telegram singari platformalarda alohida qo'llaniladi.

Tahlil va natijalar

Telegramdagi chatlar (xususiy yozishmalar, guruhlar) va kanallar (publik, xabarnoma tarzidagi sahifalar) tilshunos ekspertlar uchun ikkita alohida tahliliy maydonga aylanadi:

- Chatlar — ikki yoki ko'p tomonlama muloqot, shaxsiy yoki norasmiy xususiyatga ega, noverbal komponentlar ko'proq ishlatiladi.

- Kanallar — odatda ommaga mo'ljallangan, matnlar informativ, ko'pincha rasmiyroq, lekin unda ham emojilar, vizual materiallar, giperhavolalar mavjud bo'ladi.

Bu jihatlar “lingvistik ekspertiza ob'ekti sifatida matnlarning pragmatik ma'nosini, emotsional rang-barangligini, axborot manipulyatsiyasi ehtimolini, harakatga da'vat yoki ijtimoiy-siyosiy pozitsiyani ko'rsatish uchun tahlil qilinadi”. [2]

Telegram muloqotini, xususan, chat va kanallarni, noverbal vositalar bilan birga o'rganish zamonaviy lingvistik ekspertizaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bunday platformalarda muloqot faqat so'zlar bilan emas, balki multimodal resurslar yordamida amalga oshadi. Shunday qilib, Telegram matnlarini ekspertiza qilish, faqat tahliliy tilshunoslik emas, balki huquqiy, kommunikativ va ijtimoiy jihatlarini ham qamrab oluvchi interdisiplinar yondashuvni talab qiladi.

Telegram orqali olib boriladigan muloqot kompyuter vositasida yuz beruvchi muloqot (Computer-Mediated Communication – CMC) sifatida tavsiflanadi. Bu muloqot shakli an'anaviy yozma muloqotdan farqli jihatlariga ega bo'lib, quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

Telegram foydalanuvchilari muloqotda imkon qadar tez, aniq va qisqa ifodalarga tayanadi. Bu holat kommunikativ samaradorlikni ta'minlash maqsadida grammatik me'yorlarga nisbatan soddalashtirishlarga olib keladi. Jumladan, ba'zi morfologik birliklar tushirib qoldiriladi yoki fonetik talaffuzga mos yozuvlar qo'llaniladi:

Masalan: “borvoman”, “yozlolmaydimi?” kabi variantlar normativ yozma tilga emas, balki og'zaki til modeliga yaqinlashadi.

Bu holat “Zamonaviy lingvistika fanida “yozma og'zaki nutq” (written-oral) deb ataluvchi fenomen bilan izohlanadi”. [3]

Telegram muloqotida nafaqat matnli xabarlar, balki rasm, gif, ovozli xabar, video, stiker, emoji kabi multimodal birliklar ham keng qo'llaniladi. Bunday kommunikativ boylik “Media Richness Theory” (Daft & Lengel, 1986) asosida

tahlil qilinadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, axborot vositasining boyligi uning ko'p modal vositalarni o'z ichiga olishi, muloqotdagi noaniqlikni kamaytirish darajasi, hissiyot va reaksiyalarni tezda ifodalash imkoniyati bilan belgilanadi. [4] Telegram bu jihatdan yuqori boylikka ega bo'lgan kommunikativ platforma sifatida tan olinadi.

Telegram foydalanuvchilari muloqotda bir vaqtning o'zida rasmiy (formal) va norasmiy (informal) uslub elementlaridan foydalanadilar. Ayniqsa, guruhlar va kanallarda bunday uslublar almashinib turadi:

- Formal uslub: rasmiy til me'yorlariga mos, imlo va punktuatsiya to'g'ri qo'llaniladi. Bu ko'pincha rasmiy kanallar yoki e'lonlarda kuzatiladi.
- "Informal uslub: qisqartmalar, transliteratsiyalar, emotiklar, fonetik talaffuzga yaqin yozuvlar, stikerlar, va boshqalar". [8]

Bunday aralash nutq uslublari Telegramda gibrid kommunikatsiya jarayonini yuzaga keltiradi, bu esa zamonaviy tilshunoslikda o'ziga xos alohida tahlil obyektidir.

Telegramda muloqot dialogik shakldan polilogik shaklga o'tadi, ya'ni bir vaqtning o'zida ko'plab ishtirokchilar muloqotga qo'shiladi. Bu holat til strukturasi, strategiyasi va semantik elementlarida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Xususan: murojaat vositalarining ko'payishi (ism bilan murojaat, @belgilari bilan eslatma), kontekstga asoslangan qisqa javoblar ("ok", "xo'p", "qani endi" va h.k.), o'zaro hazil, kinoya, sarkazmga yo'g'rilgan kommunikatsiya. Bu Telegramdagi muloqot modelining dialogikdan ko'ra, ko'proq interaktiv va ko'p ishtirokchili ekanligini ko'rsatadi.

Telegram foydalanuvchilari orasidagi muloqotda boshqa tillardan o'zlashmalar, inglizcha atamalar, qisqartmalar keng tarqalgan. Masalan: "admin", "ban qilmoq", "forward", "bot", "mute" kabi birliklar.

Bu holat lingvistik konvergensiya, ya'ni bir nechta tillarning bir kommunikatsion maydonda uyg'unlashuvini anglatadi.

Telegram foydalanuvchilarining tilidan kuzatilgan ushbu ko‘rinishlar tilning moslashuvchanligini, dinamik o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi. Bu esa raqamli tilshunoslik uchun yangi empirik ma’lumot bazasini yaratadi.

Telegram muloqoti bugungi kunda an’anaviy tilshunoslik tamoyillarini yangidan talqin etishga undaydigan hodisalarga boy. Ushbu platformadagi til soddalashtirilgan, multimodal, yuqori darajada ekspressiv va kontekstdan kelib chiqqan holda tezkor moslashuvchanlikka ega. U orqali olib boriladigan muloqot tilshunoslikning yangi sohalari – multimodal kommunikatsiya, raqamli stilistika, til va emotsiya singari yo‘nalishlar – doirasida o‘rganilishi muhimdir.

Telegramdagi muloqot jarayonining ajralmas jihatlaridan biri bu noverbal kommunikatsiya vositalari, ya’ni emoji, stiker, GIF va boshqa multimodal elementlardir. “An’anaviy og‘zaki va yozma nutqda emotsiyalarni ifodalash bevosita yuz ifodalari, tana harakatlari, ovoz ohangi orqali yuzaga kelar edi. Yozma onlayn muloqotda esa bunday imkoniyatlar yo‘qligi uchun bu funksiyalarni emoji va stikerlar bajarmoqda”. [3]

Zamonaviy tilshunoslikda emoji va stikerlar paralingvistik vositalar sifatida qaraladi. Ular so‘z bilan ifodalash mushkul bo‘lgan emotsional holatlarni, ironiyani, kinoyani yoki ijtimoiy kayfiyatni ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Emoji grafematik belgi bo‘lib, foydalanuvchining kayfiyati, niyati, munosabati va reaksiyasini vizual ifodalash vositasi hisoblanadi. “Ular yozma muloqotni emotsional boyitish, intonatsiya berish va nutq ohangini aniqlashtirish funksiyalarini bajaradi”. [5]

S.C.Herring tomonidan ishlab chiqilgan kompyuter vositasidagi diskurs tahlili modeliga ko‘ra, emoji quyidagi rollarda ishtirok etadi:

- Markaziy emotsional yukni beruvchi: 😊, 😞, 😡 kabi yuz ifodalari hissiy konnotatsiyani aniqlashtiradi;
- Konversatsion signal: masalan, 😄 yoki 😏 emoji’si kulgi yoki norozilikni bildiradi;
- Intensifikator: so‘zga kuch bag‘ishlovchi vosita (masalan, “zo‘r!!! 🗿”);

– Metakommunikativ ko‘rsatkich: ironiyani, kinoyani bildirishda ishlatiladi (masalan, “raxmat e, juda foydali ekan 😊”).

Stikerlar ham paralingvistik vosita sifatida qabul qilinib, ular orqali metakommunikativ niyat yetkaziladi. C.Jewitt fikricha, bunday multimodal vositalar “semantik uzluksizlik”(semantic continuity)ni ta‘minlaydi, ya‘ni matnlararo uzilishsiz muloqot davom etadi. [6]

Telegram messenjeri ijtimoiy tarmoqlar ichida o‘zining interaktiv muloqot formasi, bir tomonlama xabar uzatish imkoniyati va ko‘p foydalanuvchili maydonlari bilan ajralib turadi. Platformadagi "chat" (suhbatlar) va "kanallar" muloqotning ikki xil usulini ifodalaydi: biri — interaktiv, ya‘ni foydalanuvchilar o‘zaro muloqot qiladigan shakl (chat), ikkinchisi esa monologik-axborotli shakldir (kanal). Ushbu ikki format turli til birliklari, stilistik vositalar va kommunikativ strategiyalar orqali ifodalanadi.

Telegram chatlarida muloqot ko‘proq og‘zaki nutqqa yaqin, tezkor va qisqa shaklda olib boriladi. Xabarlar oddiy sintaktik tuzilmalarda, ko‘pincha nuqtasiz yoki qisqartirilgan holatda beriladi (masalan: “keldingmi?”, “ha, keldim”, “ok”, “hozir boraman”). Bu esa yozma nutqning og‘zaki og‘ishgan shakli (oral-written hybrid) deb qaralishiga asos beradi. [7]

Telegram platformasi multimodal kommunikatsiyaning real maydoniga aylangan. Har bir foydalanuvchi matn, emoji, stiker, video, ovozli xabar, havola orqali ma‘no ifodalaydi. Demak Telegramdagi til ko‘p kanalli lingvistik fenomendir. Zamonaviy tilshunoslikda ushbu holatga multimodal tahlil, digital stilistika va metakommunikativ pragmatika yondashuvlari orqali baho berish lozim. Telegram misolida ko‘rinadiki, muloqot faqat so‘zlar bilan emas, balki belgilar, tasvirlar, ovozlar va kontekstlar yordamida amalga oshmoqda.

Xulosa

Bugungi raqamli kommunikatsiya davrida Telegram kabi messenjerlar orqali olib borilayotgan muloqotlar nafaqat axborot almashish vositasi, balki tilshunoslik uchun alohida tahlil obyektiga aylangan. Ushbu maqolada Telegram muloqotining

lingvistik xususiyatlari va unda ishtirok etayotgan noverbal vositalar, jumladan, emoji, stiker, GIF, belgilar va shrift shakllari kabi elementlar ko‘rib chiqildi.

Telegramdagi muloqotda tildan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari – qisqartmalar, norasmiy uslub, kontekstga asoslangan ifodalar, kod almashtirish (code-switching) va inglizcha so‘zlarning o‘zbek tiliga moslashgan shakllari keng tarqalgan. Bu holat, bir tomondan, tilning dinamikligini va foydalanuvchiga moslashuvchanligini ko‘rsatsa, boshqa tomondan, normativ til qoidalarining zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, noverbal vositalarning keng qo‘llanilishi Telegram muloqotining vizual-emosional ifoda vositalari bilan boyitilganligini ko‘rsatadi. Ular fikrni tez va ta’sirchan yetkazish, hissiy holatni ifodalash, kinoya yoki hazilni yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa muloqotda yangi pragmatik va stilistik qirralarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Telegram muloqoti zamonaviy lingvistik hodisa sifatida tahlil qilinishi lozim bo‘lgan murakkab va ko‘p qatlamli jarayondir. U til o‘zgarishlarining jonli ko‘rinishini ifodalab, internet lingvistikasi, pragmatika, sotsiolingvistika va hatto lingvistik ekspertiza sohalarida tadqiqot olib borish uchun muhim manba hisoblanadi. Kelgusida bunday tahlillar tilda yuz berayotgan yangi tendensiyalarni aniqlash va ularni ilmiy jihatdan baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Долгова, Т. А. Мультимодальные аспекты цифрового общения: эмодзи и стикеры как элементы прагматики. Вопросы когнитивной лингвистики. – 2021. 4(049), – 98–106 pp.
2. Шейгал, Е. И. Язык массмедиа как объект лингвистической экспертизы. Филология и человек. – 2018. №1, – 57–64 с.
3. Crystal, D. Language and the Internet (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. –2006. – 318 pp.
4. Daft, R. L., & Lengel, R. H. Organizational Information Requirements, Media Richness and Structural Design. Management Science. – 1986. 32(5), – 554–571 pp.
5. Herring, S. C. A Faceted Classification Scheme for Computer-Mediated Discourse. Language@Internet. –2007. – 4.
6. Jewitt, C. (Ed.). The Routledge Handbook of Multimodal Analysis (2nd ed.). NY: Routledge. – 2014. – 562 pp.

7. Androutsopoulos, J. (2008). Potentials and Limitations of Discourse-Centered Online Ethnography. *Language@Internet*. –2008. – 5.

Internet resurslar:

8. <https://lib.cspu.uz/index.php?do=download&id=14300>